

# "Matematika instituti byulleteni" elektron jurnali



"**Matematika instituti byulleteni**" elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti va O'zbekiston Matematika Jamiyati tomonidan 2018 yilda ta'sis etilgan bo'lib, yiliga 6 ta son shaklida chop etilishi rejalangan. Chop etiladigan ilmiy maqolalar hajmiga cheklov qo'yilmaydi.

**Jurnalda chop etiladigan ilmiy maqolalar 3 tilda:** o'zbek, rus va ingliz tillarida bo'lishi nazarda tutilgan.

Tahririyat a'zolari matematikaning turli ilmiy yo'nalishlarida tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar bo'lib, jurnal faoliyatida muhim ahamiyatga egalar.

*Bosh muharrir*



**Shavkat Abdullayevich Ayupov**

14.09.1952 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan.

**Mutaxassisligi:** Matematika

**Ish joyi:** O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti direktori.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi (1995), fizika-matematika fanlari doktori (1983), professor (1985).

Toshkent davlat universitetining matematika fakultetini tugatgan (1974). ToshDU da o`qituvchi (1977 - 1979) va O`zbekiston Fanlar Akademiyasi Matematika institutida kattailmiy xodim (1979 - 1988), algebra va analiz bo`limi mudiri (1986 yildan), direktor o`rinbosari (1986 - 1992), direktor (1992 - 1997). O`zbekiston Respublikasi Oliy Attestasiya Komissiyasi raisi, oliy va o`rtamaksus ta`lim vazirining o`rinbosari bo`lib ishlagan. Asosiy ilmiy ishlari funksionalanaliz va uning zamonaviy tarmoklaridan biri hisoblangan operatorlar algebralari nazariyasiga oid. Ayupov Shavkat Abdullaevich No associativ algebralari sohasida ham nazariy, ham tatbiqiy yo`nalishda yirik ilmiy maktab yaratdi.

Sh.Ayupov - O`zbekiston FA akademigi (1995 yildan), O`zbekiston Respublikasi Fan Arbobi (2011 y), I-chi darajali O`zbekististon Davlat mukofoti sovrindori (2017 y.) 2003 yildan Butun Jahon Fanlar Akademiyasi (TWAS) xaqiqiy a`zosi.

---

**Manzil:** 100170, O`zbekiston Respublikasi. Toshkent shahri. Mirzo-Ulug'bek tumani. Mirzo Ulug'bek ko'chasi 81-uy

---

**Telefon:** (+998-71) 262-75-44

---

**Faks:** (+998-71) 262-73-57

---

**E-mail:** [matinstbul@gmail.com](mailto:matinstbul@gmail.com)

---

**Sayt:** <http://mib.mathinst.uz/home.html>

### Maqolalarni qabul qilish qoidalari